

## **DIDAKTIK ASARLARNI O'RGANISH USULLARI (IBROHIM ADHAM QISSASI MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10450902>

**Muxammadieva Sevara Bahodirovna**

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Pedagogika -psixologiya mutaxassisligi magistranti*

### **Annotatsiya**

*Ma'naviy madaniyatning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati, inson ma'naviy madaniyatini shakllantirish orqali axborot xurujlaridan sashlash mexanizmi va ommaviy madaniyatning tarbiyadagi salbiy oqibatlarini kompleks tahlil qilinadi.*

### **Kalit so'zlar**

*ma'naviy madaniyat, ommaviy madaniyat, didaktika, paradigma.*

### **Annotation**

*The importance of spiritual culture in the education of a mature generation, the mechanism of protection from information attacks through the formation of human spiritual culture, and the negative consequences of mass culture in education are comprehensively analyzed.*

### **Key words**

*spiritual culture, mass culture, didactics, paradigm.*

### **KIRISH**

Jahon adabiyotshunoslik ilmi uchun didaktik adabiyotning shakllanish jarayonini aniqlash, uning tadrijiy taraqqiyot yo'li hamda milliy adabiyotdagi o'rnini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, didaktik asarlarning yuzaga kelish jarayoni, unga xos xususiyatlar va taraqqiyot tamoyillarini tarixiy-qiyosiy aspektida tadqiq etish, milliy adabiy meros mohiyatiga yanada chuqur kirib borish orqali uning jahon adabiyoti rivojida munosib o'rnini asoslash, o'zidan keyingi davrlar adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar merosini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo adabiyotshunosligida didaktika masalalari, xususan, didaktik asarlar va uning evolyusion taraqqiyoti, Sharq mumtoz adabiyotiga didaktikaning kirib kelishi, muayyan asarlardagi mazmun va g'oya uyg'unligini tadqiq etish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, didaktik asarlar badiiyati, badiiy-estetik qonuniyat kabi tushunchalarni tahlil qilishga e'tibor qaratilgan, biroq didaktik asarlarni qiyosiy o'rganish asosida ijodkorlarning o'ziga xos uslubi va mahoratini aniqlash, didaktik asarlarning jamiyat a'zolari ruhiyati va

ma'naviy dunyosiga ta'sir etgan omillarni tayin etish, bu xil asarlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarning sababini qiyosiy-tipologik jihatdan ko'rsatib berish ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda til va xalq madaniyati yuksalishi yanada kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda tarixiy, madaniy, adabiy va san'at asarlari, xususan, didaktika namunalarini o'rganish, tadqiq etish, ulardagi milliy hamda madaniy merosimizga oid g'oyalarni chuqur va atroflicha tahlil qilish, o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. «...Jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi». Shu ma'noda, inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirishda ularni ilmu ma'rifat va ma'naviyatga chorlaydigan didaktik asarlarni qiyosiy jihatdan ilmiy tadqiq etishni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

### ASOSIY QISM

Ibrohim Adham haqida ko'p eshitganmiz. U kishi bilan bog'liq hikoyatlar, qissalar, badiiy asarlar ko'pchilikka tanish. "Xamsa" da bu ulug' inson nomi, u kishi bilan bog'liq hikoyat keltirilgan. Ibrohim Adham kim? U shohlikdan voz kechib, tasavvuf yo'lini qabul qilgan mashhur shaxs. 777-yilda vafot etgan. Manbalarda uning Balxdan ekanligi, zodagon oilada tug'ilgani, yaxshi bilim olgani, ilohiyotga qiziqib, haq yo'lga kirgani, bir oz vaqt shahar hokimi vazifasida ishlagani, shohlikdan voz kechib, so'fiylik yo'lga kirishi bilan bog'liq hikoyat keltiriladi. Unda yozilishicha, bir tunda tomda birov yurganini sezgan Ibrohim Adham nima qilayotganini so'raydi. Tomdagi kishi tuyasini qidirayotganini aytadi. Ibrohim unga tomda tuya nima qiladi deya dashnom beradi. U kishi esa, hokimlik taxtida o'tirib, Haqqa yetib bo'lmasligini aytadi. Shu sabab Ibrohim Adham barcha narsasidan voz kechib, zohidona hayot kechirishni ma'qul topadi. "Hayrat ul-abror" ning ikkinchi maqolati "Islom bobidakim..." deb boshlanadi. Unda islom dini, musulmonlik, uning shartlari xususida mulohazalar bildiriladi. Ilova tarzda yigirma beshinchi bobda Ibrohim Adham va Robia Adviya haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat to'liq diniy ruhda. Unda birinchi bayt Ibrohim Adhamning mansabdan voz kechib, Olloh, fano yo'lini qabul qilgani haqida. Ibrohim Adham bilan Robia Adviyaning islom yo'lidagi harakatlari qiyoslanadi. Ibrohim Adham o'n to'rt yil zahmat chekib, namozini to'liq bajarib, Ka'ba ziyoratiga keladi. Ammo "baytul-harom" o'z o'rnida yo'q edi:

Qoldi bu yo'l qat'ida o'n to'rt yil,  
Madhig'a har xor-u giyah chekti til.  
Makka tavofig'a chu qildi xirom,  
Yo'q edi o'z o'rnida baytul-harom.

(“Hayrat ul-abror”. 118-bet)

Badiiy adabiyotda Ibrohim Adham, Birohim Adham, Adham tarzida tilga olinadigan bu ulug’ zot nomi “Saddi Iskandariy” dostonida ham uchraydi. Dostonning o’ttiz beshinchi bobida Iskandarning Xuroson tomon yurish qilib, Hirotni barpo etishi, Movarounnahrni olib, Samarqandni bunyod qilishi va Kashmirga qarab borishi bayon qilinadi. Shoir Iskandarning Sipohon (Isfahon), Xurosonni egallashi, u yerdagi Hirmand, Nimro’d, Darijaz daryolarining tavsifini berib, Balx mulki haqida gapiradi. Hushangshohning Balxni taxtgoh qilgani, Ibrohim Adham ham shu yerdanligini ta’kidlaydi:

Hamul Balxkim, qildi Hushangshoh,

Jahondin guzin aylabon taxtgoh.

Maqomi – Birohimi Adham kelib

Ki, gardi rahi charxi a’zam kelib.

(“Saddi Iskandariy”. 235-bet)

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Ibrohim Adham haqida gapirib, balxlik ekani, bir kuni ovga chiqib, Hotifning bu ish senga yarashmaydi degan nidosini eshitib, hukmdorlikdan voz kechishi, tariqat yo’lini tutishi, Shomda vafot etgani, bir necha do’stlari bilan faqat halol luqma yeyishga ahd qilganliklarini ta’kidlaydi.

Yuqoridagi hikoyatda Ibrohim Adham bilan birga Robia nomi ham tilga olingan. Robia Adviya nomi mumtoz adabiyotda, tasavvufiy manbalarda ko’p uchraydi. “Robia al-Adaviya (713/714-801)– zohidlikning ilk vakilasi. Qashshoq arab oilasida tug’ilib, cho’ri qilib sotilgan. Keyinchalik xudojo’yiligi va zohidlarga xos turmush tarziga ixlos bilan rioya etgani sababli ozodlikka chiqarilgan. Robia Adaviya Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdori bo’lgan”. Bu avliyo ayol nomi ayrim manbalarda Robia Adviya, yana birida Robia Adaviya tarzida yoziladi. “Tasavvuf allomalari” kitobida yozilishicha, “Robiya arab tilida ko’plab qo’shiq va she’rlar yaratgan. Sarchashmalarda Robiya she’rlaridan namunalar keltirilgan. Jumladan, Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” hamda “Mantiq ut-tayr” dostonida Robiya haqida fikr yuritib, she’rlaridan misol keltirib o’tadi”. “Hayrat ul-abror”da Ibrohim Adham bilan bog’liq hikoyat talqinida Robia haqida gapirildiki, shuning o’zi uning nufuzi, diniy ma’rifati xususida yetarlicha tasavvur uyg’otadi.

Ma’lum bir xalq adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini muayyanlashtirishda uning folklorga munosabati masalasini chetlab o’tish mazkur masalaning to’laqonli va obyektiv hal etilishiga monelik qiladi. Zero, «so’z san’atining boshlanishi folklordadir». Biz tadqiq qilayotgan uch didaktik asarga ham xalq og’zaki ijodining ta’sirini sezish mumkin. Hikmat – donolik, pand-

nasihat, Haqqa muvofiq soʻz, goʻzal ilm, solih amal, degan maʼnoni bildiradi. Hikmat ilmi tasavvuf ilmi hamdir. X asrdan eʼtiboran diniy-tasavvufiy mazmundagi sheʼrlar «hikmat» deb atalgan va uni birinchi boʻlib Xoja Ahmad Yassaviy qoʻllagan. Toʻgʻri, har xil mazmundagi hikmatli soʻzlar donishmandlar tomonidan doim aytib kelingan. Lekin uni maʼlum tartibdagi oʻziga xos sheʼriy shaklga solish Yassaviy tomonidan amalga oshirilgan. Hikmatlar donishmandlik, aql-zakovat va daholarning dono fikr hamda teran qarashlari ifodasi sifatida barcha zamonlar uchun qadrlidir. Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari ana shunday hikmatu pand-nasihatga yoʻgʻrilgan bitikdir. Asar baytdan iborat boʻlib, 14 bobni oʻz ichiga oladi, pand-nasihat usulida yozilgan. Unda ilm-maʼrifatli boʻlish, yaxshi axloqiy xislatlarni tarbiyalash singari masalalar ilgari suriladi. Muallif inson baxt-saodatga erishishi uchun ilm-maʼrifatni egallashi zarur ekanligini alohida uqtiradi. Yugnakiy oʻz asarida biror aniq voqea, hodisa yoki sarguzashtni hikoya qilmaydi, u odob, axloq va maʼrifatga oid didaktik qarashlarini bayon yoʻli bilan ifodalaydi. «Qutadgʻu biligʻ», «Hibat ul-haqoyiq», «Qobusnoma» asarlarining yozilishiga taʼsir etgan manbalar – hind va eron, yunon adabiyoti, diniy adabiyotlar hamda Tavrot, Qurʼon va hadis kitoblaridir. «Hindlarning tarixiy hayotidan qissa qiluvchi eng qadimiy yozma yodgorlik Veda adabiyotlaridir. Veda adabiyotlari qadim hind afsonalari asosida yozilgan diniy munajatlar, pand-nasihatlar, tarixiy qissalar va diniy marosimlarda qoʻllaniladigan duolar toʻplamidan iboratdir. Sanskrit tilida «veda» – bilim, maʼrifat degan maʼnoni anglatadi». Veda adabiyotlarining soʻnggi bosqichlarida yaratilgan turkum kitoblarda epik dostonlar, falsafiy-tarbiyaviy pandnomalarning koʻpligi maʼrifiy tarbiya zaruratidan kelib chiqqan. Uch ijodkor ham asarlarida soʻzning ulugʻligini, qudratini tasvirlaydi. Soʻz tufayli kishining tarbiyalanishi, soʻz sababli ezgulik va yomonlikni farqlay olish uqtiriladi. Soʻzning ulugʻligi uch ijodkorda oʻziga xos tarzda bayon qilingan. Yusuf Xos Hojib kishining qandayligini uning soʻzidan bilish mumkin, chunki soʻz uning dunyoqarashini, kimligini anglatadi desa, Ahmad Yugnakiy soʻzningni toʻgʻri soʻzlab, qalbingni beza – deydi. Kaykovus esa soʻz shu darajada ulugʻki, uni xor qilmaslik kerak, – deb uqtiradi. Didaktik asarlar turli xalq va millat, diniy taʼlimotlarning boy ilmiy-maʼnaviy merosidan oziqlanib, rivojlangan. Shu jihatdan ham, oʻzbek mumtoz adabiyoti namoyandalari qaysidir maʼnoda, yahudiy rivoyatlari bilan yaqindan tanish boʻlgan va oʻz asarlarida badiiylikni taʼminlash maqsadida ulardan ijodiy foydalangan. Ularning genezisini faqat Qurʼoni karim yoki islomiy rivoyatlardan qidirish yetarli boʻlmaydi. Tavrotidagi rivoyatlar didaktik asarlarda ham turlicha uchraydi. Umuman olganda, didaktik asarlar hind, eron va diniy adabiyotlarning boy ilmiy-maʼnaviy merosidan

oziqlanib yaratilgan. Asarlarda bayon etilgan badiiy to'qima, tarixiy va diniy rivoyatlar shundan dalolat beradi.

Dunyo adabiyotida yaratilgan pandnomalardagi obrazlar tizimiga xos xususiyatlar va ularning ilmiy talqinlari bilan tanishish hamda milliy didaktik asarlarimizdagi obrazlarga xos bo'lgan belgilarni sinchiklab o'rganish natijasida ilk bora didaktik obraz tushunchasiga ta'rif berishga harakat qildik. Bizningcha, didaktik obraz deb, ijodkorning didaktik maqsadi asosida fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan, pand-nasihat orqali insonda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan shaxs tasviriga aytiladi. Berilgan ta'rifdan kelib chiqqib, uch asardagi obrazlarni qiyoslab o'rganish asosida didaktik obrazlarga xos bo'lgan belgilarni tayin etishga harakat qilamiz. Uch asardagi didaktik obrazlarni tahlil qilish uchun ularni quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1. Donishmandlar obrazi. 2. Faylasuflar obrazi. 3. Vazirlar obrazi. 4. Payg'ambarlar obrazi. Ta'kidlash joizki, didaktik asarlarda qalamga olingan faylasuflar obrazi keyinchalik yaratilgan pandnomalarga ham ko'chib o'tgani ko'zga tashlanadi. Bu holat obrazlarning didaktik adabiyotdagi an'anaviy obrazlarga aylanishiga asos bo'lgan. Hukmdorlar hayoti aks ettirilgan deyarli barcha bitiklarda shoh bilan birga vazir obrazi uchraydi. Bu holatni tadqiqot obyekti bo'lmish didaktik asarlarda ham ko'rish mumkin. Didaktik asarlarning mualliflari payg'ambarlarga ilohiy irodaga ega, insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlovchi, ezgu ma'naviy fazilatlar egasi sifatida yondashganlar va hukmdorlarni payg'ambarlar ko'rsatgan yo'ldan yurishga undaganlar.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar hamda o'qituvchilar faoliyatini kuzatish, ular bilan olib borilgan suhbatlar, o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida Ibrohim Adham asarlari asosida talabalarni kasbiy madaniyatini rivojlantirishni talab etadigan metodikani ishlab chiqdik. Ushbu metodika asosida tanlangan guruhda auditoriya mashg'ulotlari o'tkazilganidan keyin ushbu guruhda yana "Adabiy asarlar bilan ishlash metodikasi", "Qiyosiy tahlil", "Matn bilan ishlash metodikasi" o'tkazildi. Jami 16 soat auditoriya mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu so'rovnomani ikkinchi qayta o'tkazishdan maqsad, yuqorida keltirilgan "Adabiy asarlar bilan ishlash metodikasi", "Qiyosiy tahlil", "Matn bilan ishlash metodikasi"ning samaradorligini aniqlash edi. Shakllantiruvchi tajribasinov bosqichida talabalarda kasbiy madaniyatni rivojlantirish maqsadida tarbiyalash va rivojlantirishga oid maxsus metodikaning sinaluvchilarda o'tkazilganligi to'g'risida so'z yuritiladi. Dastlabki o'rganishlar tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirilgan talabalarning kasbiy madaniyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning nazorat guruhida bir oz yuqoriligini ko'rsatdi. Talabalarda

kasbiy madaniyatni rivojlantirish maqsadida tarbiyalash va rivojlantirishga oid maxsus texnologiya tajriba guruhlarida qo'llanildi. Nazorat guruhlarida esa mutaxassislik fanlari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha amaldagi dasturlar asosida pedagogik faoliyat jarayoni tashkil etildi. Yakunlovchi tajriba-sinov jarayonida talabalar (respondentlar) o'rtasida savol javob, suhbat, so'rov va testlar qayta tashkil etilib, ulardagi kreativlik iqtidorlilik yana bir bor baholandi. O'rganishlar natijasida quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi.

**“Adabiy asarlar bilan ishlash metodikasi” natijalari**

So'rovnoma shkalalari	Sinaluvchilar soni	Foiz hisobida
Kasbiy madaniyatning quyi darajasi	4	13%
kasbiy madaniyatning o'rta darajasi	15	50%
kasbiy madaniyatning yuqori darajasi	11	37%

Ta'kidlovchi eksperiment so'rovnoma natijalarining ko'rsatishicha respondentlarning 13% ida kasbiy madaniyatning quyi darajasi qayd etildi. Ya'niki, ularda pedagogik ijodkorlik, kasbiy faoliyatni amalga oshirishi usullari, xulq-atvor qoidalari, pedagogik taktning namoyon bo'lishi past darajada ekanligini kuzatishimiz mumkin. Respondentlarning 50% ida esa kasbiy madaniyatning o'rtacha darajasi qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichlarga sabab bo'lgan talabalarda ularda pedagogik ijodkorlik, kasbiy faoliyatni amalga oshirishi usullari, xulq-atvor qoidalari, pedagogik taktning namoyon bo'lish ko'nikmalari o'rtacha darajada ekanligidan pedagogik jarayonda ularning nisbatan faol, mazmunli, ishtirok etishlarini anglashimiz mumkin. Sinaluvchilarning 37% ida kasbiy madaniyatning yuqori darajasi qayd etildi. Respondentlarning bu guruhi o'zining ularda pedagogik ijodkorlik, kasbiy faoliyatni amalga oshirishi usullari, xulq-atvor qoidalari, pedagogik taktning namoyon bo'lishi bilan guruhdagi boshqa kursdoshlaridan ajralib turishlarini alohida qayd etish lozim.

Respondentlarning Ibrohim Adham asarlari asosida talabalarni kasbiy madaniyatini rivojlanganlik darajalarini ifodalovchi ko'rsatkichlari (yakunlovchi tajriba-sinov) jadvalida tajriba va nazorat guruhlarining kasbiy madaniyat ko'rsatkichlari hamda ular orasidagi farqlari keltirilgan. Unga ko'ra kasbiy madaniyatning yuqori darajasi tajriba guruhida 13% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida 37% qayd etildi. Kasbiy madaniyatning o'rtacha darajasi tajriba guruhida 56% bo'lsa, nazorat guruhida 50%ni, kasbiy madaniyatning quyi ko'rsatgichi tajriba guruhida 26.6% bo'lsa, nazorat guruhida 16%ni tashkil etdi.

**Tanlanmalar ko'rsatkichlari yordamida quyidagi diagramma shakllantirildi (1-rasm).**




Diagramma grafiklaridan tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan ko'rsatkichlarning tanlanma modal qiymatlari mos ravishda  $M_t=5$  va  $M_n = 3$  ga tengligini, ya'ni ular orasida keskin farq mavjudligi (matematik nuqtai nazardan  $M_t > M_n$  ga teng)ligini anglash mumkin.

### XULOSA

O'zbek mumtoz adabiyotida didaktik asarlarning qiyosiy-tipologik tahlili jarayonida didaktik asar va didaktik obrazlarning kelib chiqishi, tadrijiy takomili hamda ularga ta'sir etgan omillar, asarlardagi hukmdorlar obrazi, til odobi, ilm haqidagi qarashlar, nafs tarbiyasi mavzusining badiiy talqinini qiyosiy tahlil etish asosida quyidagi nazariy xulosalarga keldik:

Tahlillar natijasida «didaktik obraz» tushunchasiga ilmiynazariy ta'rif berildi. Didaktik obraz deb, ijodkorning didaktik maqsadi asosida fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan, pandnasihat orqali insonda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan shaxs tasviriga aytiladi. Didaktik obrazlar ilk bor donishmandlar faylasuflar, vazirlar, payg'ambarlar obrazlari tarzida tasnif etildi.

Didaktik asarlarda iudaizm, xristianlik va islomda xudodan vahiy olgan va uni odamlarga yetkazadigan, xudo bilan bandalari o'rtasidagi vositachi, uning yerdagi elchisi hisoblanadigan payg'ambar obrazi ham tasvirga tortilgan. Ularda payg'ambarlar kelajakni oldindan ko'ra oladigan, taqdirni oldindan aytib beradigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Didaktik asar mualliflari payg'ambarlarga ilohiy irodaga ega, insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlovchi, ezgu ma'naviy fazilatlar egasi sifatida yondashganlar va hukmdorlarni payg'ambarlar ko'rsatgan yo'ldan yurishga undaganlar. Didaktik asarlarda inson bilimi bilan ulug'lanishi, kishining nomi ilm tufayli mangu qolishi aytiladi. Bu g'oya har uch ijodkor tomonidan o'ziga xos yo'sinda, betakror shaklda badiiy ifoda etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бердяев Н.А. Философия неравенства // Н.А. Бердяев: сост. предисл. и примеч. Л.В. Полякова.- Москва: ИМА-пресс, 1990.- С. 221.
2. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс: СПб.:Пер. с исп. /ХОртега-и-Гассет,- Москва: ООО «Издательство АСТ», 2001. С. 15.
3. Коменский Я.А., Локк Д., Песталоцци Л. Избранные педагогические сочинения,- Москва: Педагогика, 1987.-С. 28
4. Эко У. Средние века уже начались/Иностранная литература.-1994.-N 4,- С. 258-267.